

CHINGIZ AYTMATOV ASARLARIDA MIFOPOETIK TALQIN

(“Asrga tatigulik kun”romani va “Oq kema” qissasi)

Mahfuza Xo‘jaqulova

talaba

Termiz davlat universiteti

Termiz, O‘zbekiston

E-mail: xujaqulovamahfuza@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Chingiz Aytmatov roman va qissalari dagi mifopoetik jihatlar, asar badiiyatini va mazmunini ochib berishdagi asosiy vazifasi, mifopoetik jihatlarning asar tuzilishi va mohiyatidagi vazifasi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: mifologem, mifologik tasvir, miflar, afsona, Shoxdor Ona bug‘u, Nayman ona.

Afsona tushunchasi uzoq vaqt davomida insonning dunyo haqidagi g‘oyalarining shakkalanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Afsonalar dunyo ni o‘rganishning eng qadimiy shakli bo‘lib, bir so‘z bilan aytganda, hayot ning ko‘p konkretliklarini umumlashtiradi. Miflarda, rivoyatlarda qadimiy urf-odatlar, qadriyatlar, xalq vakillarining turmush-tarzi, e’tiqodi o‘z aksini topadi. Folklorshunoslikda ushbu janrlar alohida o‘rin egallab, badiiyati, janr xususiyat lari tadqiq qilingan. Avvalo, mifopoetika terminiga to‘xtalsak, bu atama individual ijodkorlik asarlaridagi mifologik tuzilmalar va obrazlarni o‘rganuvchi poetikaning bo‘limi hisoblanib, afsonaning mifologik syujet, obraz, motiv kabi jihatlari tahlil qilinadi. “Mifologem” (yunoncha, “ mif ” so‘zidan olingan) belgilash uchun ishlatiladigan atama, syujetlar, sahnalar, tasvirlar, insoniyatning o‘limi va tanlanganlarning najoti kabilarni anglatib, zamonaviy adabiyotda ko‘pincha qasddan

olingen mifologik sabablarni belgilash va ularni zamonaviy badiiy madaniyat dunyosiga o‘tkazish uchun ishlatiladi.

Jahon adabiyotining yetuk vakillaridan biri Chingiz Aytmatov asarlarida mifologik tasvirlar va xalq og‘zaki ijodi elementlari ko‘zga tashlanadi. Yozuvchi qirg‘iz xalqiga xos bo‘lgan afsonalar, rivoyatlar, ertaklardan o‘z asarlarining badiiy qiymatini oshirishda, asar mazmunini yana-da ochib berishda mahorat bilan foydalangan. **Adibning asarlaridagi miflar, mifopoetik xususiyatlarga O.V.Kondrashova va A.Edoshinlar o‘z fikrlarini bildirganlar.**¹ “Oq kema” qissasida ham jihatlarni ko‘rishimiz mumkin. Asarda “kamdan kam uchraydigan baxtli odam” bo‘lgan Mo‘min chol o‘z nabirasiga Shoxdor Ona Bug‘u haqidagi ertakni aytib beradi. Asarda “kamdan kam uchraydigan baxtli odam” bo‘lgan Mo‘min chol o‘z nabirasiga Shoxdor Ona Bug‘u haqidagi ertakni aytib beradi. Bola uchun bug‘u oddiy tog‘ hayvoni emas, balki chinakam mehr-oqibat timsoliga aylanadi. Bola ertakni tinglagandan so‘ng xayolida Oq kema haqidagi ertakni yaratadi. Onasi tashlab ketgan, bobosi tarbiyasiga olgan bola uchun Oq kema diydor ramzi bo‘lib, otasi bu kemada matros bo‘lib ishlashi, agar Oq kemaga yetib borsa, otasini ko‘rishi haqidagi o‘zi to‘qigan ertagiga, garchi u yolg‘onligini bilsa ham ishonadi. “U na otasini, na onasini eslay olardi. Bola ularni biron marta ham ko‘rmagan. Ularning hech qaysi biri biron marta ham yo‘qlab kelmagan. Lekin bola bilardi: otasi Issiqko‘lda matros, onasi esa otasidan ajrashgandan keyin o‘g‘lini boboga qoldirib o‘zi shaharga ketgan. Ketgan-u shu bo‘yi qaytib kelmagan”.¹

¹ O.Madayev, Sobitova. Xalq og‘zaki ijodi. -T.: ”Sharq”, 2010. 50-b

Adib bu o‘rinda asar qahramonining dunyoqarashiga kirib borib, bolaning o‘z dunyosida yaratgan turli o‘simgiliklar, toshlar, chumolilar haqida yaratgan ertaklarini ham keltirib o‘tadi. Uning ulkan shaklga kengaygan suyukli xarsang toshlari durbinning oynalariga manglayini tirab turganday tuyuldi. “Tuya”, “bo‘ri”, “egar”, “tank” kemtik yoriqlari, yon-veridagi sarg‘aygan otquloloqlari bilan juda haybatli va, eng muhimi, ular bola atagan narsalarga juda o‘xshardi. Adib ertaklari kabi samimiy va beg‘ubor bola dunyoqarashini mahorat bilan tasvirlaydi. Qissadagi Enasoy

daryosi haqidagi qo'shiqda ham shu yerda yashovchi insonlarning Enasoy daryosiga bo'lgan e'tiqodidan darak beradi. "Asrga tatigulik kun" romanidagi Nayman Ona rivoyati ham asar mazmuni, uning mohiyatini ochib berishga xizmat qilgan. Filologiya fanlari nomzodi U. Sattorov "O'zbek xalq toponimik rivoyatlari(o'ziga xos xususiyatlari va tasnifi)" nomli nomzodlik disertatsiyasida shunday fikr bildiradi: Biz o'rganayotgan "Nayman ona rivoyati toponimik rivoyatlarning nekronimik turiga mansub. Nekronimik rivoyatlarda muayyan hududdagi mozor, qabr, avliyo qadamjosi, ziyoratgoh yoki maqbaralarning paydo bo'lishi, bunday joylar nomining kelib chiqish sabablari real hayotiy faktlar asosida izohlanadi. Tasvirlanayotgan voqelikning etnografik konkretlik kasb etishi, epik bayonning bevosita tarixiy haqiqat va hayotiy detallar asosida ifodalanishi, muayyan hudud doirasida lokallashishi, shuningdek, mozor yoki ziyoratgohning muqaddasligi haqidagi inonchlarni mustahkamlashga xizmat qilishi nekronimik rivoyatlarning o'ziga xos epik xususiyatlarini tashkil etadi"²

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

²Sattorov U. O'zbek xalq toponimik rivoyatlari (o'ziga xos xususiyatlari va tasnifi). Filol.fanlari nomz. diss. Avtoref.. – Toshkent, 2001, 22-bet.

